

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуронва – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Умарханова Дилдора Шарипхановна

ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БҮЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ
РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 9-14

Yakubova Iroda Bahramovna

MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA
MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR..... 15-26

Собирова Нозимахон

СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ
ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ 27-36

Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли

ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ
ХУҚУҚИННИГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ 37-45

Турсунов Ойбек

ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА 46-53

Ismoilova Aziza Alisher qizi

MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY
EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI 54-60

Safarova Shaxlo Pulatovna

YANGI O'ZBEKİSTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARİSHLARINING INSON
HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI 61-67

Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi

CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES 68-71

Valijonov Daler Dilshodovich

PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE
AND PRACTICE OF EU MEMBERS 72-76

Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li

DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY
MASALALARI 77-92

To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li

VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI 93-103

Хайдарова Хилола Анваровна

НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ... 104-109

Рахмонова Моҳичехра Нодирбек кизи

СУВЕRENİTET İ YURİSDİKİYİA Vİ KİBERPİROSTRANSTVE 110-118

Худайбердиева Шоҳиста Ақмал қизи

ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ RESPUBLİKAŁARI ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	119-129
<i>Aljonov Ayubjon Qobiljon o'g'li</i> RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH	130-136
<i>Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich</i> XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
<i>Fayzullaeva Shakhllo Jumaniyaz kizi</i> ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO	142-147
<i>Raimov Elbek Bahodirovich</i> OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
<i>Alieva Kamola Ravshanovna</i> OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN	153-161
<i>Juraeva Asal</i> MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	162-166
<i>Rakhmonov Otabek</i> THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES	167-171
<i>Айбек Якубов</i> ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВОЮ ОРГАНИЗАЦИЮ	172-178
<i>Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li</i> MA'MURIY SUD HUJJATLARINI IJROGA QARATISHNING HUQUQIY TARTIBI	179-184
07.00.00 – TARIX FANLARI	
<i>Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li</i> TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
<i>Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li</i> URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI	193-199
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Imamov Javokhir</i> LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN	200-203
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna</i> “TAHDID” FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI	204-209
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	

<i>Bawetdinov Mukhammeddin</i>	
UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI	210-215
<i>Соҳибова Зарнигор</i>	
ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА)	216-219
<i>Jonridova Sanobar Sherali qizi</i>	
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLER TADQIQI	220-224

<i>Sharipova Mokhidil</i>	
PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH LANGUAGE.....	225-231

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Umarov Abdurasul Abdurahimovich</i>	
PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH	232-237

<i>Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi</i>	
YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY QARASHLARI	238-245

<i>Qalandarova Maxliyo</i>	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH	246-251

<i>Чинқулова Гулмехра Баҳроновна</i>	
ЎҚУВ МАШФУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	252-258

<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI.....	259-264

<i>Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA IFODALANISHI	265-269

10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI-PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 10 August 2024

Accepted: 15 August 2024

Published: 25 August 2024

Article / Original Paper

UZAKBAY PIRZHANOV'S LANDSCAPE POETRY

Bawetdinov Mukhammeddin,

Doctoral student of Karakalpak State University named after Berdakh

b_muxammed@karsu.uz

Abstract. This article examines the landscape lyrics of the renowned Karakalpak poet Uzakbay Pirzhanov. In the poet's work, the landscape is actively used as a creative method of conveying philosophical thoughts about love for the beloved and the motherland, the laws of life. Also, the use of certain elements of nature as a detail fulfills important tasks in the composition of Uzakbay Pirzhanov's landscape lyrics.

Keywords: lyrics, landscape, symbol, detail, cycle.

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI

Bawetdinov Mukhammeddin,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli qoraqalpoq shoiri Uzaqbay Pirjanovning peyzaj lirikasi tadqiq qilingan. Shoир ijodida peyzaj sevgan yor va vatanga muhabbat, hayot qonuniyatları haqida falsafiy fikrlarini yetkazishda ijodiy usul sifatida faol qo'llanilgan. Shuningdek, tabiatning ma'lum bir unsurlaridan detal yoki ramz sifatida foydalanish Uzaqbay Pirjanov peyzaj lirkasining kompozitsiyasida muhim vazifalarni bajargan.

Kalit so'zlar: lirika, peyzaj, ramz, detal, turkum.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N26>

Kirish. Adabiyotshunoslik terminlari lug'atlarida, peyzaj lirkasida lirik subyektning his-tuyg'ulari va ichki kechinmalari tabiat manzaralari orqali aks etishi alohida ta'kidlanadi [1]. XX asr qoraqalpoq lirkasida peyzaj lirkasining ilk va yorqin namunalarini S.Majitov, S.Nurimbetov, N.Japaqov va boshqalarning she'rlarida uchratamiz. Peyzaj lirikasi – shoirlarning tabiatga munosabatini ko'rsatadigan lirik janr. Ko'pincha shoirlar tabiat obrazi orqali o'z ichki olamini ko'rsatish texnikasidan foydalanadi. Badiiy vositalar orqali tabiatning go'zalligi, undagi insonning boshidan kechirishi mumkin bo'lgan teran ruhiy aloqa tasvirlanadi. XX asr qoraqalpoq lirkasida peyzaj lirkasini alohida janriy-uslubiy yo'nalish sifatida rivojlantirgan shoirlardan biri Uzaqbay Pirjanovdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qoraqalpoq adabiyotshunoslida Q.Orazimbetov, K.Allambergenov, A.Dosimbetova, T.Otarova va boshqalar lirkada peyzaj tasvirlari bo'yicha maqolalar yozgan va tadqiqotlar olib borgan. Mazkur tadqiqotlarda qoraqalpoq shoirlari J.Izbasqanov, K.Karimov, T.Sarsenbaev, A.Ajiniyazovlarning peyzaj

she'riyati tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan. Lekin, Uzaqbay Pirjanovning peyzaj lirikasi bo'yicha o'z davrida va so'ngi vaqtarda na fanda, na adabiy tanqidda maxsus tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shu asosda ushbu maqolada U.Pirjanovning peyzaj she'riyatining ayrim xususiyatlari o'rganiladi.

Natijalar va muhokamalar. "Peyzaj lirkasining asosiy tasvir usuli peyzaj tasviridir, lekin uni qanday yetkazish har bir shoirning shaxsiy izlanishiga bog'liq" [7, 36] deb ta'kidlaydi adabiyotshunos G.Tleuniyazova. Shoir Uzaqbay Pirjanovning peyzaj lirkasini o'rganganimizda, uning ijodida peyzaj obrazlari ma'lum bir vazifalarni bajarganligini payqaymiz. Unga ko'ra, shoir lirkasida peyzaj obrazlari tug'ilgan yurt, vatan, muhabbat tuyg'ulari va falsafiy fikrlarni yetkazishda keng miqyosda foydalanilgan. Shuningdek, sof peyzaj she'rlari orqali shoir shunchaki tabiatga bo'lgan o'z sevinchini ko'rsatishga harakat qiladi.

U.Pirjanovning «Amudaryo sayl qilsam qirg'og'ingni», «Bolaligim», «Men tug'ilgan yerda», «Qo'ng'iroq», «Dala qo'shig'i» she'rlarida tabiat obraqi lirik qahramonning o'z tug'ilgan yurtiga, vataniga bo'lgan his-tuyg'ularini yetkazuvchi vosita sifatida ko'zga tashlanadi. «Tong», «oq tol», «gullar», «daryo», «jilg'a», «soy» obrazlari bilan birgalikda qushlarning alohida turi bo'lgan «g'oz», «turna», «qaldirg'och» obrazlari orqali shoir tug'ilgan yurtining ekzotik tasvirini, go'zalligini o'quvchining ko'z oldiga gavdalantiradi. Mazkur obrazlar ichida «tong» obraqi shoir tomonidan yetakchi obraz sifatida qo'llanilganligini payqash mumkin.

Shoirlar ko'pincha tabiat bilan ichki ruhiy aloqada bo'lib, uning go'zalligiga va qudratiga ruhiyatini ilhomlantiruvchi manba sifatida qaraydi. Uzaqbay Pirjanov lirkasida ushbu xususiyatlardan muhabbat she'rlarida ham o'ziga hos gavdalantirilgan. Shoirning «Oyli tun», «Oydin oqshom», «Etyud», «Buloqdan eshitdim erka kulgingni», «Sen kelasan», «Ogohlantirish», «Orol yoqasida» she'rlarida lirik qahramonning sevgan yoriga degan histuyg'ulari tabiat tasvirlari orqali, ya'ni tabiat fonida gavdalantiradi. Mana, ushbu she'rlarda lirik qahramonning visol onlari, sog'inch tuyg'usi tun xronotopi orqali beriladi. E'tibor bersak, biz yo'qorida shoirning tug'ilgan yurt tabiatiga bag'ishlangan she'rlarida tong obrazining yetakchiliginini payqagan edik. Muhabbat she'rlarida esa tun xronotopining yetakchiliginini ko'ramiz. Bu tabiiy. Chunki, shoirdagi romantik kayfiyat uning she'rlariga o'tib, eng nozik tuyg'ular tun quchog'ida o'z ifodasini topadi.

Peyzaj lirkasida tabiatning ma'lum bir elementlari ko'pincha ramziy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Tog'lar kuch yoki chidamlilik, daryolar vaqtning to'qtamay o'tishini, daraxtlar esa o'sish yoki bardosh, chidamlilik ramzi bo'lishi mumkin.

Tabiat manzaralarini ramziy usulda tasvirlash 1960-80-yillar lirkasi uchun xos hodisa bo'ldi. Uzaqbay Pirjanovning peyzaj lirkasida ham tabiatning ma'lum bir unsurlaridan detal yoki ramz sifatida foydalanish muhim o'rinn tutadi. Shoirning "Yo'l bo'yida," "Pastda turib bo'lguncha dilgir," "Jingillar," "Kuz," "Kuz yaproqlari" kabi she'rlarini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Tabiat lirkasida yil fasllari alohida ramziy xarakterga ega. Ko'pincha insonning hayoti, taqdiri haqidagi falsafiy fikrlar yil fasllariga jamlangan holda beriladi. Masalan, ko'p hollarda:

- a) bahor - tug'ilish, yangilanish, yasharish, uyg'onish, muhabbat ramzi;
- b) yoz - yoshlik, baxtli, quvonchli kunlar, jo'shqin hayot va mehnat jarayoni ramzi;
- c) kuz - tushkunlik, umidsizlik, o'tkinchi vaqt, xotima, xayrlashuv, ayriliq ramzi;
- d) qish - o'lim, qiyinchilik, sinov ramzi sifatida aks etadi.

Albatta, bu faslardagi tabiat hodisalari (yomg'ir, qor, bulut va h.k.) ham insonning ruhiy holatini ifodalovchi alohida ramz yoki detal vazifasini bajarishi mumkin.

Kuz motivi badiiy asarlarda biz yuqorida ta'kidlaganimizdek tushkunlik, umidsizlik, o'tkinchi vaqt, xayrlashuv va ayriliq ramzi sifatida keladi. Bu motivda esa inson hayoti va o'limini bir butunlikda tasvirlovchi detal bu - barglardir. Barglar insonning doimiy hayoti, turmush tarzi, vazifalari, hayotning boshlanishi (bu ko'pincha kurtak shaklida keladi) va tugashi (barglarning sarg'ayib uzilishi), bolaligi, yoshligi yoki keksaligi bilan bog'lanadi. Yaqinlashib kelayotgan o'lim (qish) o'tgan hayotdan xulosa chiqarish uchun turtki hisoblanadi. Ana shunday tabiat manzaralari va hodisalaridan falsafiy mushohada qilishga intilish Uzaqbay Pirjanovning "Kuz yaproqlari" [6, 35-37] turkumida yaqqol namoyon bo'ladi. Adabiyotshunos M.Orazimbetovaning ta'kidlashicha: "Bir necha asarlarning bitta poetik strukturaga birikishida bir mavzu yoki bir xil mualliflik emotsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Turkumdag'i har bir asar shoirning yuksak tafakkurini to'ldirib boradi va lirk qahramonning dunyoqarashini yaxlit holda o'quvchiga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.[3, 16]"

Turkum besh kompozitsion qismdan iborat bo'lib, har bir qism biz gapirayotgan detal - bargning kurtak yorilishidan tortib sarg'ayib uzilishigacha bo'lgan lahzalarni inson hayoti bilan parallel ravishda aks ettirib boradi. Ya'ni, barg detali turkumda kompozitsion xizmat bajaradi. Albatta, har bir bo'limni alohida she'r sifatida qabul qilish mumkin. Ushbu she'rlarni bir turkumga jamlab, tizimlashtirib turgan narsa esa inson hayoti va barg detalidir.

Bul japiraqlar erte báhár tańında:

Aqsókitte búrtik bolıp,
Kól shetinde súyrik bolıp,

Uriq bolıp kókledi...

Soń

Jawınnan soń... jawın

Tamshı sebelep,

Sútilmekler buratılıp, –

Shırmalıp,

Joqarıǵa órledi...

Soń japiraqlar hawij alıp jasardı –

Misli jaslıqqa uqsap. (Qoraqalpoq tilida)

Birinchi she'rdan keltirilgan bu misralarda inson hayotidagi tug'ilish, o'sish va yoshlik bargning kurtak yorib chiqishi, uning yashil tus olib o'sishi orqali beriladi. Ikkinci qo'shiqda barg endi qalin soyani ta'minlab turganligi, kuzning kelishi bilan esa ulardag'i yashillik yo'qolib, salqin shamollar bilan sarg'ish torta boshlagani tasvirlanadi.

Tut «tógilip», torańǵıllar sarǵaydı,

Sıydamlandı nartları.

Bunu kórip únsız basın shayqayı,

Eske túsim ótip ketken jaslığı:

(Balalığı – báhári – boztorǵayı)

Biziń jaqtıń kópti kórgen qartları... (Qoraqalpoq tilida)

Biz inson hayoti kontekstida kuz nimani anglatishini tushunishimiz kerak. Odatda, kuz charchoqni, o'limga yaqinlikni yoki yuqorida aytib o'tganimizdek, o'tgan vaqt ni qumsash hissini ifodalash uchun ishlataladi. She'rda keksa insonlarning barglarning sarg'ayishiga "unsiz boshini chayqashi" orqali hayot qonuni oldida insonning ojizligi ifodalanadi. Keyingi uchinchi she'rda turnalarning issiq o'lkalarga uchib ketayotgan mavludi tasvirlanadi. Turnalar obrazi klassik obraz bo'lib, kuz fasli manzaralariga juda mos keladi.

Ízǵıǵan japıraq,
 Ğawqıyǵan gúdshek
 Hár jerde turar úyilip.
 Ayazlı tańlar
 Jasıl japıraqlardı «sındırıp»,
 Tırnalar ketti –
 Japlarda suwdı tındırıp. (Qoraqalpoq tilida)

satrlari orqali o'quvchi qalbida, xayolida kuz koloriti jonli tus oladi. So'nggi to'rtinchi va beshinchi she'rlarda lirik qahramonning sezgir nigohi barglarning uzilishiga e'tibor qaratilib, bundan u falsafiy o'ylarga beriladi:

Japıraqlar solǵın hám sari japıraqlar
 Samal esse shirt etip,
 Áste-aqırın úziler...

Qarap tursań sarǵışh tartqan dalańǵa
 Japıraq qusap jasarıw bar
 Japıraq qusap...
 Túbinde bir sarǵayıw bar adamǵa. (Qoraqalpoq tilida)

Barglarning daraxtlarni tashlab ketishida, shamol bilan uzilib tushishida bir vaqtning o'zida ham go'zal, ham ma'noli manzara, hayot qonuniga bo'ysunish, unga taslim bo'lish bor. Daraxt bu - hayot, barglar esa - insonlar. Hayot bir zaylda davom etaveradi, insonlar esa xuddi shu yaproqlar kabi kurtak yorib chiqadi, yam-yashil bo'lib ko'rindi, vaqt kelib sarg'ayib hayotdan ko'z yumadi. Daraxtda esa keyingi bahorda yangi kurtaklar ochiladi. Hayotning bu oddiy haqiqati va qonuni lirik qahramon kayfiyatiga ham ta'sir etib, so'nggi beshinchi she'rda o'zini bargga tenglashtirib, hayotini fasllarga o'xshatadi:

Biyǵam balalıǵım saǵan qosılıp,
 Ómirimniń báhári ótti.
 Jaslıqtıń da hawiri basılıp,
 Ómirimniń jazı da ótti.
 Endi gúz keldi –
 Shashqa «qıraw» túsip bir belgi berdi.

Bul ele hesh gáp!
 Ele bul ómirdiń qarlı qısı bar,
 Ayazlı toqsan...
 Ómirim máwsimlerge megzeýseń baqsam. (Qoraqalpoq tilida)

Demak, "...peyzaj inson ruhiyatini yoritishda holatlarning, voqealarning, zamon va davr sinovlarida hayot kechirayotgan xarakterlarning o'sish-o'zgarishlarini yanada aniqroq anglashga yordam beradi.[2, 214]" Darhaqiqat, shoir kuzgi manzara va barglar orqali inson hayotini o'z ichiga qamrab olgan obrazli manzarani o'z ruhiyatidan o'quvchi ruhiyatiga yetkazadi. Shuningdek, e'tibor berilsa, shoirning ushbu she'rida gradatsiyaning klimaks va antiklimaks turlari parallel qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, qo'shiq davomida lirik qahramon ruhiyatidagi ko'tarinkilik asta-sekin pasayib borib antiklimaks holatini hosil qilsa, mazmun, fikr-mulohaza borgan sari kuchayib klimaks holatini hosil qilgan. Bunday she'rlarda lirik kechinma bilan tabiat boricha uyg'unlashib ketadi.

Peyzaj lirkasida qushlar va hayvonlar ko'pincha metaforik, allegorik yoki ramziy obrazlar sifatida ishlataladi. Ular turli sifatlar, his-tuyg'ular yoki g'oyalarni aks ettirishga xizmat qiladi. Masalan, Uzoqboy Pirjanovning "Burgut" she'rida burgut mardlik, ozodlik, qudrat timsoli sifatida tasvirlangan. Uning yer sathidan baland ko'tarilish qobiliyati erkinlik tuyg'usini ifodalab, yerdagi cheklovlardan ozod qudrat egasini anglatadi. Shoir she'rdagi burgut obrazidan buyuk maqsadlarga intilish g'oyasini berish uchun foydalanadi. Shoirning boshqa bir "Maymun" she'rida esa lirik qahramon hayvonot bog'idagi har xil tabiatli maymunlarni tasvirlaydi. Maymunlar obrazi orqali jamiyatda kun kechirish uchun maymunsifat harakatlarni qilayotgan kishilar obrazini allegorik usulda ochib beradi.

Shoirning "Kuz" she'rida esa, ko'lmak suvda qolgan juft "baliq," "o'rgimchak to'riga o'ralgan pashsha," "mehnatkash chumoli" obrazlari orqali insonlardagi beparvolik tufayli keladigan og'ir holatlarni tasvirlaydi. Bunday oddiy detallarni misol sifatida keltirgan shoir har bir narsaga befarq qaramay, inson oldiga aniq bir maqsadlar qo'yib yashash kerakligini uqtirmoqchi bo'ladi.

Xulosa. Uzaqbay Pirjanov ijodida peyzaj uning "Muhabbat qo'shig'i" [4], "Unda bahor edi..." [5], "Kuz yaproqlari" [6] to'plamlarida keng o'rın olganini ko'rish mumkin. Ana shu nuqtayi nazardan shoir lirkada o'zining peyzaj uslubini yaratdi, deb aytishga to'la asosimiz bor. Shoirning lirik evolyutsiyasiga nazar tashlasak, "Muhabbat qo'shig'i" to'plamida yoshlikka xos o'tkir his-tuyg'ular, yoshlikni kuylash, "Unda bahor edi..." to'plamida muhabbatni qadrash, hayot haqida o'ylarga berilish, "Kuz yaproqlari" to'plamida esa jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarga ham publisistik, ham falsafiy fikrlar berilishi seziladi. Demak, Uzaqbay Pirjanov to'plamdan to'plamga kuchli romantik his-tuyg'ulardan hayot haqida keng miqyosda fikrlovchi lirik qahramon sifatida tadrijiy o'sib boradi. Biroq, bu jarayonda peyzaj lirkasi o'z dinamikasini to'la saqlab va shu bilan birga rivojlanib borganini kuzatamiz. Ya'ni, tabiat baribir shoirning asosiy ilhom manbai sifatida o'z o'rnini yo'qotmagan.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ахметов С., Есенов Ж., Жәримбетов Қ. Әдебияттаның атамаларының орысша-қарақалпақша түсіндірмे сөзлиги. – Нөкис: Билим, 1994. – Б. 159; Әдебиеттану. Терминдер сөздігі. – Алматы: Ана тілі, 1998. – Б. 312-313; Қурунов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 221.
2. Байзаков Ж. Пейзаж тасвири поэтикасида услубий муштараклик. // ЎзМУ Хабарлари, 2022. №1/5.
3. Оразымбетова М. Қарақалпақ поэзиясында лирикалық дүркинлердин поэтикасы. Филология илимлери бойынша философия докторы (PhD) илимий дәрежесин алыў ушын жазылған диссертация. – Нөкис, 2021.
4. Пиржанов У. Мұхаббат қосығы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1970.
5. Пиржанов У. Онда бәхәр еди. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977.
6. Пиржанов У. Гүзги жапырақтар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1983.
7. Тлеуниязова Г. Қарақалпақ лирикасында композициялық изленислер. – Ташкент: Lesson Press, 2022.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº S/6 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсуллияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).